

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.02.04  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEV FARRUXJON KOMILJON O'G'LI**

**300X28H2JI MARKALI CHO'YANNING YEYILISHBARDOSHLIGI VA  
YUZA QATTIQLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim  
ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. (Quymachilik va  
metallarga ishlov berish texnologiyasi yo'nalishi)**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy  
(PhD) on technical sciences**

**Abdullayev Farruxjon Komiljon o'g'li**

300X28H2Л markali cho'yanning yeyilishbardoshligi va yuza qattiqligini oshirish texnologiyasini takomillashtirish.....3

**Абдуллаев Фаррухжон Комилжон угли**

Совершенствование технологии повышения износостойкости и поверхностной твердости чугуна марки 300X28H2Л .....20

**Abdullaev Farrukhjon Komiljon ugli**

Improvement of the technology for increasing the wear resistance and surface hardness of 300X28H2Л grade cast iron.....38

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....45

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.02.04  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEV FARRUXJON KOMILJON O'G'LI**

**300X28H2JI MARKALI CHO'YANNING YEYILISHBARDOSHLIGI VA  
YUZA QATTIQLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. (Quymachilik va metallarga ishlov berish texnologiyasi yo'nalishi)**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T3900 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida ([www.tdtu.uz](http://www.tdtu.uz)) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tashbulatov Sherzod Baxtiyarovich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Norxudjayev Fayzulla Ramazanovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Allanazarov Akmal Abdulxaqovich**  
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.02.04 raqamli Ilmiy kengashining 2026 yil «13» may soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 2-uy. Tel./faks: (99871) 227-10-32, e-mail: [tadqiqotchi@edu.uz](mailto:tadqiqotchi@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (104 - raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi 2-uy. Tel./faks: (99871) 227-10-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «30» aprel kuni tarqatilgan.  
(2026 yil «29» apreldagi № 215-raqamli reestr bayonnomasi).

**K.A.Karimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, t.f.d., professor

**Sh.B.Tashbulatov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori  
(DSc), dotsent

**N.D.Turaxodjayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d. professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuqori xromli cho‘yan qotishmalariga termokimyoviy va strukturaviy ishlov berish jarayonlarini intensivlashtirish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan AQSh, Germaniya, Avstraliya, Xitoy, Rossiya mamlakatlarida yuqori xromli cho‘yanlarni ultra-dispers kukunlari va kamyob yer elementlari bilan modifikatsiyalash hamda kompleks legirlash usullari keng qo‘llanilmoqda. Bu borada jumladan, yuqori xromli cho‘yan qotishmalarining kristallanish jarayonida mikrotuzilmaviy shakllanish sharoitlarini o‘rganish, evtektika va karbid fazalarining mahalliy hamda markazlashtirilgan taqsim ot maydonlarini tahlil qilish, ishqalanish va abraziv yeyilish qonuniyatlari hamda texnologik cheklovlarni (mo‘rtlik va termik kuchlanishlar) bartaraf etish orqali qotishmaning chidamliligini oshirish va resurs sarfini optimallashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda tog‘-kon sanoati mashinalari ehtiyot qisimlarining yeyilishbardoshliligini sezilarli yaxshilash, xususan yuqori xromli cho‘yanlarni ultra-dispers kukunlari va kamyob yer elementlari bilan modifikatsiyalash, ya’ni suyuq metallga nano-o‘lchamli oksidlar va nitridlar kukunini kiritish orqali yuqori xromli cho‘yan strukturaning keskin maydalashishi, ularni struktura bo‘ylab bir tekis taqsimlanishi, qattiqligi va o‘lchamlar barqarorligini ta’minlash, zarbiy qovushqoqligini oshirish, ichki kuchlanishlarni kamaytirish hamda quyma detallarning darz ketish xavfini bartaraf etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, yuqori xromli cho‘yan tarkibiga molibdenni modifikator sifatida qo‘shish orqali qotishmaning yeyilishga bardoshliligini oshirish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, yuqori xromli cho‘yanlardan quyib olinadigan detallarni molibdenning cho‘yan tarkibida hosil qiladigan kimyoviy birikmalarning strukturaga ta’sir qilish mexanizmini, cho‘yanning qolip ichida sovush tezligining yuza qattiqligiga ta’sir etish darajasini, qolip materialining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini hamda qolip ichida sovutish texnologiyasi qolip materiali va quyma orasidagi issiqlik almashinuv koeffitsiyentining haroratga bog‘liq ravishda o‘zgarish dinamikasini aniqlash orqali quyish texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda tog‘-kon sanoati mashinalari ehtiyot qisimlarini ishlab chiqarishda energiyatejamkor va resurstejamkorlikka asoslangan hamda ehtiyot qisimlar ish unumdorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “...mashinasozlik korxonolari negizida kon-metallurgiya mashinalari, texnikalari va uskunalarini ishlab chiqarishni joriy etish va mahsulot turlarini kengaytirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish hamda ular uchun zarur jihozlar va butlovchi qismlarni ishlab chiqarishni tashkil etish

...”<sup>1</sup> bo’yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, tog‘-ko sanoati mashinalari va agressiv muhitda ishlovchi uskunalari ehtiyot qismlarini ishlab chiqarishda yangi, zamonaviy va resurstejamkor hisoblangan modifikatsiyalash va termik ishlov berish texnologiyalarini ishlab chiqish, jumladan yuqori xromli cho‘yan tarkibiga molibdenni modifikator sifatida qo‘shish orqali modifikatorlarning mikrotuzilmadagi karbidlar morfologiyasiga hamda ichki kuchlanishlar taqsimotiga ta’sirini aniqlash muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 24-yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 99 – son hamda ushbu 2.1 – ilovasidagi, 2022 – yilda iqtisodiyotning muhim tarmoqlari bo’yicha yangi turdagi mahsulotlarni yaratish va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish loyihalari, va 2022 yil 6 iyuldagi PQ-307-sonli “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo’yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi talablariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon miqyosida metallurgiya va quymakorlik sanoatida yetakchi o‘rinlarni egallagan Amerika olimlari Jeffrey A Hawk, Leander Thiele, K. H. Zum Gahr, A. Bedolla-Jacuinde, F.V. Guerra, A.J. Guerrero-Pastran, M.A. Sierra-Cetina, S. Valdez-Medina yeyilishbardosh yuqori xromli oq cho‘yanlarni issiqlik bilan ishlov berishga bog‘liq holda mikro tuzilishi va yeyilishga bardoshlilik o‘rtasidagi bog‘liqlikni hamda yuqori xromli oq cho‘yanga (tarkibi 17% Cr, 3% C, 1% Ni va 1% Mo) bor qo‘shishning (1,197% gacha) mikrostruktura, qattqlik va abraziv yeyilishiga ta’siri ustida ilmiy tadqiqotlar olib borib, qotishma tarkibiga bor qo‘shilishi natijasida karbidlarning umumiy miqdori 27,1% dan 53,84% gacha oshib yeyilish bardoshligi yuqori quyma mahsulot olishga erishilgan. Germaniya olimlari U. Pranav Nayak, Frank Mucklich, Maria Agustina Guitar, Sebastian F. Fischer, Stefan Muschna, Matthias Bunck yeyilish bardosh oq cho‘yanlarni issiqlik bilan ishlov berishning cho‘yanning mikrostrukturasi va yeyilishga (eskirishga) chidamliligiga ta’siri o‘rganilgan, tadqiqot natijalariga ko‘ra, issiqlik bilan ishlov berish parametrlari optimallashtirilib, materialning mexanik xususiyatlari yaxshilash texnologiyasini ishlab chiqilgan. Avstraliya olimlari Pourasiabi Lighvan hamda G.D.Nelson o‘z ilmiy ishlarida yeyilishbardosh oq cho‘yanlarni Niobiy karbidi bilan modifikatsiyalash yo‘li bilan yeyilishbardoshligi yuqori detallar olish va ularni baholash ustida tadqiqot ishlarini olib borishgan, NbC qo‘shilishi natijasida qattiq karbidli zarralar hosil bo‘lib,

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

ular metall strukturasi bir tekis taqsimlanadi. Bu esa materialning qattiqligini oshiradi va yeyilishgaga bardoshlilikini yaxshilaydi. NbC hajm fraksiyasi ortgan sayin, materialning qattiqligi 724 HV dan 812 HV gacha oshgan. Tadqiqotga ko'ra, har 1% NbC qo'shilishi natijasida qattqlikni 7,3 HV ga oshirilgani aniqlangan. Xitoy olimlari Xiaohui Zhi, Jiandong Xing, Yimin Gao, Hanguang Fu, Jiyun Peng, Bing Xiao oq cho'yanga issiqlik bilan ishlov berishning mikrostruktura va mexanik xususiyatlarga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda Fe-17 % Cr-4 % C-1,5 % Ti tarkibli qotishma tahlil qilinib, issiqlik bilan ishlov berish jarayonida  $M_7C_3$  va TiC karbidlarining hajmi, taqsimoti va hajmiy ulushi, shuningdek, martensit tuzulishi o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, past haroratlarda va qisqa ushlab turish vaqtlarida 1 mkm dan kichik bo'lgan mayda ikkilamchi karbidlarining soni ortgan. Evtektik haroratga yaqin past ushlab turish haroratlari va uzoq ushlab turish vaqtlaridan foydalanish Ti bilan modifikatsiyalangan yuqori xromli cho'yanning yeyilish bardoshlilik va qattiqligini oshirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

MDH davlatlaridan Rossiya olimlari P.A. Molochkov, A.S. Sozikina oq cho'yanlarning yeyilishga bardoshlilikiga ta'sir qiluvchi turli omillar, jumladan ekspluatatsiya sharoitlari, qotishmaning kimyoviy tarkibi, tuzilishi va issiqlik bilan ishlov berish jarayonlari ko'rib chiqilgan, ayniqsa, xrom va vanadiy kabi legirlovchi elementlarning yuqori xromli cho'yanlarning xususiyatlariga ta'sirini o'rganilgan. Yuqori xromli cho'yanlarning yakuniy mikrostrukturasini va qattiqligini oldindan aniqlash uchun matematik modellar ishlab chiqib, ushbu modellar termodinamik va kinetik tamoyillarga asoslanib, yuqori xromli cho'yanlarning optimal issiqlik bilan ishlov berish rejimlarini aniqlash texnologiyasi yaratilgan. Belarusiyaning BNTU universitetining olimlari N.I. Urbanovich, O.S. Komarov, I.B. Provorovlar molibden elementini kompleks modifikator tarkibida katalizator va modifikatsiyalovchi qo'shimcha sifatida qo'llash imkoniyatlarini o'rganib, erkin Gibbs energiyasining harorat bilan o'zgarishi hamda molibden asosidagi katalizator komponentlarining cho'yandagi kremniy va uglerod bilan o'zaro reaksiyalarini tahlil qilishgan. Bundan tashqari, yuqori haroratlarda eriydigan karbid va nitridlar hosil qiluvchi bor o'rniga, yuqori haroratda karbid hosil qiluvchi molibden oksididan foydalanish mumkinligi hamda hosil bo'ladigan ushbu karbidlar oq cho'yanni suyuqlantirish jarayonida grafit kristallarining shakllanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilishini aniqlashgan. Qozog'iston olimlari A. Panichkin, A. Uskenbayeva, A. Kenzhegulov va boshqalar yuqori xromli cho'yan qotishmasi ustida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Tadqiqotchilar modifikator sifatida 0,2 % miqdorida bor, molibden, vismut, qalay va kalsiy elementlarini suyuqlantirilgan metallga kiritganlar va sovutish tezligiga ta'sirini o'rganishgan.

O'zbekiston olimlari A.A. Muxammedov, F.R. Norxudjaev, B.Q. Tilabov, A.A. Yusupxodjaev, S.D. Nurmurodov va boshqalar oq cho'yanlarning yeyilishbardoshligini oshirish uchun strukturasi yaxshilash, optimal tarkibini ishlab chiqish va ularning mustahkamligini oshirish va pechdan tashqari ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqishgan.

O'rganilgan ma'lumotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, yuqori xromli cho'yanlardan quyib olinadigan detallarni molibdenning cho'yan tarkibida hosil

qiladigan kimyoviy birikmalarning strukturaga ta'sir qilish mexanizmini, cho'yanning qolip ichida sovush tezligining yuza qattiqligiga ta'sir etish darajasini, qolip materialining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini hamda qolip ichida sovutish texnologiyasi qolip materiali va quyma orasidagi issiqlik almashinuv koeffitsiyentining haroratga bog'liq ravishda o'zgarish dinamikasini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universiteti hamda Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ korxonasi bilan hamkorlikdagi 23-avgust 2022-yilda tasdiqlangan № 63-7492 sonli xo'jalik shartnomasi asosida olib borilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** 300X28H2Jl markali cho'yanning yeyilish-bardoshligi va yuza qattiqligini oshirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

300X28H2Jl markali cho'yanning kimyoviy tarkibini tahlil qilish va molibden elementining qo'shilishi natijasida hosil bo'ladigan kimyoviy birikmalarni aniqlash. Ularning tuzilma (mikrostrukturaviy) o'zgarishlariga ta'siri hamda modifikatsiyalovchi elementning miqdori va kiritish usulining optimal parametrlarini belgilash.

Molibden bilan modifikatsiyalangan cho'yanning mexanik xossalarini o'rganish va ushbu jarayon asosida modifikatsiyalash texnologiyasini ishlab chiqish, qo'shilgan elementning ta'siri natijasida qotishmaning mustahkamlik, qattiqlik va yeyilishga bardoshlilik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.

300X28H2Jl markali cho'yandan quyma usulda nasos parragini olish texnologiyasini ishlab chiqish, quyma jarayonida sovush tezligining o'zgarishi natijasida yuzada hosil bo'ladigan qattiqlik darajasini aniqlash va optimallashtirish.

Nasos parragiga termik ishlov berish rejimini ishlab chiqish va uni amaliyotda sinovdan o'tkazish. Bunda devor qalinligi va qolip materiali issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti hisobga olingan holda optimal qizdirish, ushlab turish va sovitish bosqichlarini aniqlash, termik ishlov berilgan hamda modifikatsiyalangan namunalarni solishtirish va ishlab chiqilgan texnologik yechimlarning samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida "OKMK" AJ korxonasining tarkibidagi MTMZ zavodida ishlatiladigan 300X28H2Jl markali yeyilishbardosh oq cho'yan olingan.

**Tadqiqotning predmetini** yeyilishga bardoshli oq cho'yanlarni modifikatsiyalash orqali cho'yanlardan tayyorlangan namunalarning sifatli strukturasi olish texnologiyasi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot na'munalarning strukturaviy tahlillari uchun LV150N modeli metallografik elektron mikroskop usulidan foydalanilgan. Namunalar qattiqligi Brinnel usulidan foydalanib, Dura Vision-20 jihozida aniqlangan. Qotishma kimyoviy tarkibi "SPEKTROMETR-M5000" modeli spektrofotometr usulida aniqlangan. Tadqiqot namunalari zarbiy qovushqoqligini aniqlashda Charpy testi usulidan foydalanildi. Namunalarning cho'zilishdagi mustahkamlik chegarasini aniqlashda universal statik test sinov usulidan foydalanilgan. Tadqiqot namunalarning

yeyilish bardoshlilikini aniqlashda gorizontol olmos diskli ishqalash usulidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

300X28H2JI markali cho‘yanni molibden bilan modifikatsiyalash texnologiyasi molibdenning cho‘yan tarkibida hosil qiladigan kimyoviy birikmalarning strukturaga ta’sir qilish mexanizmi asosida ishlab chiqilgan;

300X28H2JI markali cho‘yandan quyma usulda nasos parragini olish texnologiyasi cho‘yanning qolip ichida sovush tezligining yuza qattiqligiga ta’sir etish darajasi asosida ishlab chiqilgan;

300X28H2JI markali cho‘yandan quyma usulda olingan nasos parragiga termik ishlov berish rejimi parrakning devor qalinligi va qolip materialining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti asosida ishlab chiqilgan;

300X28H2JI markali cho‘yandan quyma usulda olingan nasos parragini qolip ichida sovutish texnologiyasi qolip materiali va quyma orasidagi issiqlik almashinuv koeffitsiyentining xaroratga bog‘liq ravishda o‘zgarish dinamikasi asosida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

300X28H2JI markali cho‘yanning ferroqotishmalar bilan modifikatsiyalash texnologiyasi takomillashtirilgan;

yeyilishbardosh cho‘yan qotishmasiga issiqlik bilan ishlov berish rejimi optimallashtirilgan;

termik ishlov berish natijasida cho‘yanning mexanik xossalari oshirilgan;

Yuqori xromli yeyilishbardosh cho‘yan qotishmasining yeyilish bardoshlikka sinash natijalari tahlil qilingan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi aniq qo‘yilgan vazifa asosida ko‘plab o‘tkazilgan (5-7 ta) tadqiqotlar natijasida olingan mahsulotlarning mexanik, fizik va texnologik hossalarni o‘rganishda zamonaviy IK-spektroskopiya, fazalarni identifikatsiyasi hamda bir yoki bir nechta aniq tasvirlar hosil qilish va sirt xossalari aniqlashni skanerlovchi elektron mikroskop (SEM-Zeiss EVO MA 10 (Carl Zeiss)) va (Empyrean Malvern Panalytical) intellektual difraktometri asosida o‘tkazilganligi, qotishmalarining mexanik xossalarni aniqlashda “P-50 M” rakamli avtotexnika mashinasi yordamida amalga oshirilishi, olingan namunaning qattiqligi metall va qotishmalarining qattiqligini o‘lchash uchun mo‘ljallangan (Dura Vision-20) usullari yordamida aniqlangan natijalar bilan taqqoslash orqali izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yuqori dispersli karbid fazalarining shakllanish mexanizmlari va ularning mikroqattqlik hamda yeyilishga bardoshlilik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati yuqori xromli cho‘yanlarni modifikatsiyalashning samarali texnologik parametrlarini ishlab chiqish hamda sanoat sharoitida agressiv muhit va intensiv ishqalanishga bardoshli quymalarni olish imkoniyatini yaratishi bilan izohlanadi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

300X28H2JI markali cho‘yanning yeyilishbardoshligi va yuza qattiqligini oshirish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olingan tadqiqot natijalar asosida:

GRAT nasosining parraklari quyma usulida olish uchun qo‘llaniladigan 300X28H2JI markali cho‘yanni molibden bilan modifikatsiyalash texnologiyasini “Olmaliq kon metallurgiya kombinati” AJ “MTMZ” zavodining quyuv sexiga joriy qilingan (“Olmaliq kon metallurgiya kombinati” AJ tomonidan berilgan 16.02.2024 dagi 02-24/01-0209-sonli ma’lumotnomasi). Joriy qilish natijasida diskning yeyilishbardoshligi 10-12% ga oshgan;

GRAT nasosining parragini quyma usulda olish texnologiyasini “Olmaliq kon metallurgiya kombinati” AJ “MTMZ” zavodining quyuv sexiga joriy qilingan (“Olmaliq kon metallurgiya kombinati” AJ tomonidan berilgan 16.02.2024 dagi 02-24/01-0209-sonli ma’lumotnomasi). Joriy qilish natijasida parrakning yuza qattiqligi 7-8% ga oshgan;

300X28H2JI markali cho‘yandan quyma usulda olingan nasosning parraklariga termik ishlov berish texnologiyasini “Olmaliq kon metallurgiya kombinati” AJ “MTMZ” zavodining quyuv sexiga joriy qilingan (“Olmaliq kon metallurgiya kombinati” AJ tomonidan berilgan 16.02.2024 dagi 02-24/01-0209-sonli ma’lumotnomasi). Joriy qilish natijasida nasos parraklarining yeyilishbardoshligi 3-4% ga oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining tadqiqot natijalari jami 12 ta, 2 ta xalqaro miqyosida, 10 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bilan bog‘liq bo‘lgan, umumiy holda 19 ta ilmiy materiallar nashr qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 5 tasi respublika, 2 tasi xorijiy ilmiy va ilmiy-texnik jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgi va atamalar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, hajmi 120 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot ishining maqsadi hamda vazifalari aniq belgilangan. Shuningdek, tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflab o‘tilgan, uning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib berilgan. Ishda tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi, ularning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Olingan ilmiy natijalar amaliyotda sinovdan o‘tkazilib, ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilgan. Dissertatsiyada bajarilgan tadqiqotlar asosida chop etilgan ilmiy ishlar haqida ma’lumot keltirilgan hamda ishning tuzilishi va hajmi bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **“Yuqori xromli cho‘yan qotishmasining yeyilish bardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida mazkur yo‘nalish bo‘yicha adabiyotlar tahlil qilinib, 300X28H2JI markali cho‘yan qotishmasining kimyoviy tarkibi, fizik-mexanik xossalari hamda ularning sanoat tarmoqlarida qo‘llanilish sohalari o‘rganilgan.

Bobda yuqori xromli cho‘yan qotishmalarini molibden bilan modifikatsiyalash jarayonining metall mikrostrukturasi, karbid fazalarning shakllanishi va ularning yeyilishga bardoshlilikka ta’siri haqida dunyo olimlarining tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Shuningdek, modifikatsiyalovchi elementlarning optimal miqdorini tanlash, ularni pechda kiritish harorati hamda modifikatsiya sifatiga ta’sir etuvchi texnologik omillar o‘rganilgan.

Adabiyotlarda yuqori xromli oq cho‘yanlar asosidagi qotishmalardan olinadigan yeyilishga bardoshli detallar (nasos g‘ildiraklari, maydalagich qismlari, ishqalanishga ishlovchi detallar) mashinasozlik va kon-metallurgiya sanoatida keng qo‘llanilayotgani, ularning xizmat muddatini uzaytirish uchun kimyoviy tarkibni optimallashtirish va yangi qotishma markalarini ishlab chiqish dolzarb masala ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqori xromli cho‘yanlar yuqori qattqlik va aşinishga bardoshlilikka ega bo‘lsa-da, ularning texnologik oquvchanligi pastligi va sovish jarayonida yoriqlanish xavfi mavjud. Shu sababli quyma sifatini oshirish uchun modifikatsiyalash, termik ishlov berish, qolip aralashmalari tarkibini to‘g‘ri tanlash hamda optimal quyish tizimini loyihalash muhim hisoblanadi.

Adabiyotlarda, shuningdek, yuqori xromli cho‘yanlarni eritish jarayonida yuzaga keladigan ekologik muammolar — gaz chiqindilari, chang hosil bo‘lishi, shlak va metall yo‘qotishlar — hamda ularni kamaytirishning zamonaviy usullari (filtratsiya, issiqlikni qayta ishlatish, chiqindilarni qayta eritish) yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ob’ektini tanlash va tadqiqot usullarini ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyekti, ishlatilgan materiallar, ularning fizik-mexanik xossalari va kimyoviy tarkibi keltirilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishida qo‘llanilgan eksperimental usullar, sinov o‘tkazish sharoitlari va ishlatilgan asbob-uskunalar tavsiflab berilgan. Bobda olingan namunalarni tayyorlash, ularni modifikatsiyalash, termik ishlov berish va yeyilishbardoshlilikni aniqlash bo‘yicha qo‘llangan metodikalar ilmiy asoslangan tarzda bayon etilgan.

Tadqiqot ishining obyekti 300X28H2JI markali yuqori xromli yeyilishbardosh oq cho‘yan qotishmasidan quyib olinadigan yer osti suvlarini chiqarib olishda foydalaniladigan nasoslarning parrak detalidir. Ushbu detall Olmaliq kon-metallurgiya kombinati yer osti shaxtalarini qazish jarayonida yer ostidan sizib chiqadigan suvlarni tashqariga chiqarib olishda ishlatiladigan GRAT nasoslarining muhum vazifasini bajaruvchi detali hisoblanadi.

Quyma namunalarni tayyorlash jarayonida BF-TB2 rusumli induksion pechidan foydalanilib, eritma tarkibiga modifikatsiyalovchi element sifatida molibden qo‘shilgan. Tayyorlangan quyma namunalari MP-1C rusumli silliqlash va jilvirlash uskunasi ishlov berilib, ularning sirtlari metallografik tahlilga tayyorlangan.

Namunalarning kimyoviy tarkibi “SPEKTROLAB M9” spektrometri yordamida aniqlandi.


Qotishmaning mikrostrukturasi АЛЬТАМИ MET 6С metallografik mikroskopi yordamida o‘rganilib, karbid fazalarining shakli va taqsimoti tahlil qilindi. Shuningdek, fazaviy tahlil va sirt morfologiyasini o‘rganish maqsadida SEM–Zeiss EVO MA 10 (Carl Zeiss) hamda Empyrean Malvern Panalytical skanerlovchi elektron mikroskoplaridan foydalanildi. Ushbu uskunalar yordamida namunalar sirtining mikrostruktura xususiyatlari, element tarkibi hamda fazaviy o‘zgarishlar chuqur tahlil qilindi.

Qotishmaning muhim xossalari, jumladan, qattqlik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun Dura Vision-20 rusumli sinov mashinasida tajribalar o‘tkazildi.

Ushbu kompleks yondashuv natijasida 300X28H2Л markali cho‘yan qotishmasining mikrostrukturasi, kimyoviy tarkibi, mexanik va yeyilishbardoshlik xossalari o‘zaro bog‘liqlikda aniqlanib, ilmiy asosda tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning **“300X28H2Л markali oq cho‘yan qotishmasining yeyilishbardoshligini oshirish ustidagi tadqiqotlar”** deb nomlangan uchinchi bobida yuqori xromli oq cho‘yan qotishmalarining yeyilishga bardoshlilikini oshirish bo‘yicha ishlab chiqarish va laboratoriya tajribalari natijalari keltirilgan.

Tadqiqotlar davomida 300X28H2Л markali cho‘yan qotishmasiga turli miqdorda molibden (0,1–2%) qo‘shish orqali modifikatsiyalash tajribalari olib borildi.




**1-rasm. Qotishma tarkibida molibden miqdori ortgan sari qattqlik oshib borish grafigi.**

Molibdenning kiritilish harorati va miqdoriga qarab qotishmaning mikrostrukturasi, karbid fazalarning taqsimlanishi hamda ularning morfologiyasi o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, molibden qo‘shilishi evaziga qotishmada nozik tarqalgan  $(Cr,Fe)_7C_3$  karbidlar hosil bo‘ladi, bu esa metall matritsaning qattqligini oshiradi va yeyilishbardoshlilikni sezilarli darajada yaxshilaydi.

**Qattiqlikni molibden qo‘shish haroratiga bog‘liqlik natijalari**

Molibdenni qo‘shish temperaturasi, °C	Qattiqlik, HB
1300	406
1350	409
1400	420
1450	438
1500	451



**2-rasm. Qattiqlikni molibden qo‘shish haroratiga bog‘liqlik natijalarining grafik ko‘rinishi.**

Modifikatsiyalangan 300X28H2JI cho‘yan namunalarining kimyoviy tarkibi “SPEKTROLAB M9” spektrometri yordamida aniqlanib, asosiy elementlar (C, Cr, Ni, Mo, Si, Mn) miqdori optimallashtirilgan diapazonda ekanligi tasdiqlandi.

**Yuqori xromli 300X28H2JI qotishmasi uchun TY-26-06-1484-87 bo‘yicha tavsiya etilgan optimal kimyoviy tarkib**

300X28H2JI qotishmasi	Elementlar,%							
	C	S	P	Mn	Cr	Si	Ni	Fe
TY-26-06-1484-87	2,5-3	0,08	0,12	0,5-1	25-30	0,7-1,4	1,5-3	qolgani

SPEKTROLAB M9 jixozida o‘tkazilgan tahlillar natijasida, tadqiq qilinayotgan quyma namunalarning kimyoviy tarkibi aniqlandi va bu ma’lumotlar keyingi

metallografik hamda mexanik tadqiqotlar uchun ishonchli boshlang'ich bazani ta'minlaydi. (3-jadval)


**3-jadval**

**Quyma namunalarning SPEKTROLAB M9 spektrometri yordamida aniqlangan kimyoviy tarkibi**

300X28H2Л qotishmasi	Elementlar,%						
	C	S	P	Mn	Cr	Si	Ni
1-namuna	2,57	0,013	0,055	0,67	28,65	1,20	1,59
2-namuna	2,55	0,029	0,056	0,62	28,30	1,23	1,64
3-namuna	2,51	0,028	0,057	0,59	28,36	1,21	1,59

Qotishmaning mikrostrukturasi АЛЬТАМИ MET 6С metallografik mikroskopi hamda SЭМ–Zeiss EVO MA 10 elektron mikroskopida tahlil qilinib, modifikatsiyalash natijasida fazalar maydalanishi va bir jinslilik darajasi oshgani aniqlangan.

Tajriba davomida silliqланib va sayqallanib tayyorlangan namunalar mikroskop stolchasiga joylashtirilib, ularning sirlari 50× dan 1000× gacha kattalashtirishda o'rganildi. Natijada, qotishma tarkibidagi strukturaviy komponentlar — asosiy matritsa, grafit zarralari, karbid fazalari va boshqa mikroelementlar aniq tasvirlarda qayd etildi.



**3-rasm. АЛЬТАМИ MET 6С yordamida olingan tasvirlar**

Namunalarning yeyilishga bardoshlilikini aniqlash maqsadida ularning har biri maxsus “Olmos diskli yeyilish sinov qursilmasi”ga o'rnatilib, belgilangan sharoitda sinovdan o'tkazildi. Har bir sinov namunasi qurilmaga 3 daqiqa davomida joylashtirildi. Ushbu vaqt oralig'ida namunalar sirtiga ma'lum bosim va aylanish tezligida abraziv ta'sir ko'rsatilib, real ishqalanish sharoitlari modellashtirildi.




a)

b)

**4-rasm. a) Olmos diskli yeyilish sinov qursilmasining umumiy ko‘rinishi. b) yeyilishga sinash uchun tayyorlab olingan namunalar.**

Tadqiqotlar davomida yeyilishbardoshlik sinovlari ikki turdagi namunalar ustida olib borildi: birinchisi korxonadan olingan tayyor namunalar, ikkinchisi esa laboratoriya sharoitida molibden bilan modifikatsiyalangan namunalar. Sinov jarayonida har bir namuna bir xil sharoitda, standart sinov usullari asosida tekshirildi.

Olingan grafik natijalar shuni ko‘rsatadiki, modifikatsiyalangan namunalar korxonadan olingan asl namunaga nisbatan sezilarli darajada yaxshilangan yeyilishbardoshlikka ega. Bu esa molibden bilan modifikatsiyalash jarayonining qotishmaning strukturaviy va mexanik xossalariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatganini isbotlaydi. Grafikda ko‘rinib turibdiki, modifikatsiyalangan namunalar yuqori yuklamalar ostida ham deformatsiyaga nisbatan bardoshliroq bo‘lib, qotishmaning xizmat muddatini uzaytirishga imkon beradi. (5-rasm)



**5-rasm. Qotishmaning yeyilishbardoshlikka taqqoslangan natijalarining grafigi**

Qotishmaning mexanik xossalarini yaxshilash maqsadida termik ishlov berish rejimlari (oldindan qizdirish, qizdirish harorati, ushlab turish va sovitish tezligi) takomillashtirildi. Optimal termik ishlov berish rejimida qotishma strukturasi teng taqsimlangan nozik karbid zarralari va qattiq matritsa shakllandi. Natijada metallning mikroqattiqligi 7–8% ga, yeyilishbardoshliligi esa 10–12% ga oshgani aniqlangan.

Termik ishlov berish jarayonlari Olmaliq kon-metallurgiya kombinati Rux zavodida joylashgan “SNOL 7,2/1100” markali mufel elektr pechida amalga oshirildi. Ushbu uskuna yuqori aniqlikda haroratni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lib, metall qotishmalarni turli bosqichlarda bosqichma-bosqich qizdirish va sovitish orqali ularning strukturaviy o‘zgarishlarini chuqur o‘rganishga sharoit yaratadi.


Tadqiqot jarayonida tayyorlangan namuna bosqichma-bosqich harorat oshirish rejimida termik ishlovdan o‘tkazildi. Dastlab, namuna 200 °C temperaturada 3 soat davomida izotermal holda ushlab turildi. Bu bosqichda qotishmadagi ichki kuchlanishlarni qisman chiqarish va strukturadagi mikroskopik poralarni barqarorlashtirish maqsad qilindi.

Shundan so‘ng harorat 4 soat davomida bosqichma-bosqich 600 °C gacha ko‘tarildi, har 15 daqiqada harorat 25 °C ga oshirilib borildi. Bu jarayon metall asosining bir xil qizishi va detal bo‘ylab issiqlikning tekis taqsimlanishini ta‘minladi. 600 °C haroratda 2 soatlik izotermal ushlab turish natijasida strukturadagi evtektoid va karbid fazalarning qayta taqsimlanishiga zamin yaratildi.

Keyinchalik harorat yana oshirilib, 920–950 °C gacha ko‘tarildi. Bu bosqichda ham har 15 daqiqada harorat 25 °C ga oshirilib, namunaning barcha qismlariga issiqlikning bir xil ta‘siri ta‘minlandi. Ushbu yuqori haroratda 2 soatlik izotermal ishlov amalga oshirildi. Bu bosqich metall asosidagi austenit strukturasi barqaror hosil bo‘lishiga va legirlovchi elementlarning bir xilda tarqalishiga xizmat qildi.

Termik ishlovning so‘nggi bosqichida namuna tabiiy havo muhitida sovutildi. Bu bosqichdagi tez sovutish metallning ichki strukturasi ayrim kuchlanishlarni keltirib chiqarishi mumkinligi sababli, qo‘shimcha bo‘shatish (stress-relief annealing) jarayoni amalga oshirildi. Ya‘ni, detal 230–250 °C temperaturada 2–3 soat davomida termik bo‘shatishga qo‘yildi.

Bu jarayonning asosiy maqsadi — tez sovutish natijasida yuzaga kelgan ichki termik kuchlanishlarni bartaraf etish, strukturani barqaror holga keltirish va metall asosining plastikligini oshirishdan iborat. Natijada, termik ishlov berilgan 300X28H2JI markali cho‘yan namunasida metall asosining mustahkamligi, ishqalanishga va yeyilishga bardoshlilik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshdi, shu bilan birga, karbid fazalarining taqsimlanishi yaxshilandi va strukturadagi notekisliklar ancha kamaydi.



**6-rasm. 300X28H2JI markali cho‘yan asosidagi namunalar uchun termik ishlov berishning optimal me‘yori**

Termik ishlov berish jarayonining o'ziga xos me'yorlari va ularning afzalliklarini quyidagicha bayon etish mumkin:

Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, qotishma strukturasi austenitni samarali ravishda parchalash uchun 920–960 °C harorat oralig'i optimal deb topildi. Bu harorat diapazonida austenitning barqarorligi pasayib, uning tuzilishidagi ichki kuchlanishlar kamayishi hisobiga strukturada faol o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Olib borilgan ishlab chiqarish va laboratoriya tajribalari natijalari asosida 300X28H2J markali cho'yan qotishmasining yeyilishga bardoshlilikini oshirishning optimal texnologik parametrlari ishlab chiqildi. Taklif etilgan modifikatsiyalash va termik ishlov berish texnologiyasi arzon xomashyo asosida yuqori sifatli, ekspluatatsion ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan quyma detallar olish imkonini berdi.

O'tkazilgan tajriba va tahlillar natijalariga asoslanib, nasos parragi detali uchun tayyorlanadigan quymaning qolip konstruksiyasi har tomonlama takomillashtirildi. Xususan, quyish tizimi elementlari — metall quyish kanali, ustamalar hamda detaldagi ichki geometrik shakl va o'tish zonalarini qayta loyihalaniib, yanada optimal holga keltirildi.

Ushbu konstruktiv o'zgarishlar natijasida metallning qolipga kirishish jarayonida yuzaga keladigan nuqsonlar, shuningdek, sovish vaqtida paydo bo'ladigan issiq yorilarning oldi samarali ravishda olindi. Metall oqimining barqarorligini ta'minlash, hajmiy qisqarishlarni qoplash imkoniyati oshirilib, tayyor quymaning strukturaviy yaxlitligi sezilarli darajada yaxshilandi.


Olmalik kon-metallurgiya kombinati AJ "Markaziy ta'mirlash mexanika zavodi"ning Quyuv bo'limida nasos parragi detalining quymasini olish jarayoni bir martalik qum–gilli qolipdan foydalangan holda amalga oshirildi. Mazkur jarayonda mavjud quymakorlik chizmalari qayta ko'rib chiqilib, qolipning ayrim konstruktiv elementlariga hamda aralashma tarkibidagi komponentlarning foiz ulushiga texnologik o'zgartirishlar kiritildi. Natijada qolip konstruksiyasi takomillashtirilib, quyma sifatini oshirish uchun qulay sharoit yaratildi.

Qolip aralashmasining asosiy tarkibi sifatida foydalanilgan qo'shimchalar — ishlatilgan qum, yangi kvarts qumi, bog'lovchi sifatida qo'llanilgan gil turlari (bentonit, kaolinit) hamda ma'lum miqdordagi suvdan iborat bo'ldi. Ularning o'zaro to'g'ri nisbatda tanlanishi qolipning mustahkamligi, gaz o'tkazuvchanligi va shaklni aniq takrorlash xususiyatlarini ta'minladi.

#### 4-jadval

##### Qum – gilli qolipning optimal tarkibi

Ishlatilmagan kvarts qumi, %	Ishlatilgan qum, %	Bentonit gili, %	Suv, %	Kuyishga qarshi kukun, mm
20-23	60-65	5-7	4-5	1-2 (qolipning ichki yuzasiga)



**7-rasm. Qum-gilli qolip konstruksiyasi hamda tayyor detalning umumiy ko‘rinishi**

